

## “OYDIN TUNLAR” ROMANMI YOKI QISSA?

*Shohista Tohirjonova ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada “Oydin tunlar” asarining janr xususiyatlari hamda asar qahramonlarining ijtimoiy hayot bilan bog`liq holda shakllangan ma`naviy-ruhiy qiyofasi haqida tahlil olib borilgan.

**Kalit so`zlar:** *janr, retsepiyent, sentimental roman, ruhiy-psixologik tahlil, badiiy tahlil metodi.*

### Abstract

In this article “Moonlight Nights” genre features of his work related to the social life of the work an analysis of the moral and spiritual image of the heroes of the work formed in connection with social life was carried out.

**Keywords:** *genre, recipient, a sentimental novel, spiritual and psychological alysis, method of artistic analysis.*

Talabalik yillarimda Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo ” romanini o`qigandim. U vaqtlarda asar og`riqli, o`quvchini qiynab yuboradigandek tuyulgandi . Shu boisdanmi yoki kitobxonlar orasida mavjud bo`lgan Tolstoy va Dostoyevskiy asarlarini raqobatda tasavvur qilish (go`yoki ularni tanlab o`qish, biriga muxlislik qilish kerakdek)tushunchasi ta`siridanmi men ham Tolstoy asarlarini o`qishga berildim va Dostoyevskiy asarlaridan uzoqlashdim, toki “Oydin tunlar” asariga to`qnash kelmaguncha... Agar biz qaysidir asarni tushunishga qiynalsak bunda muallif emas o`quvchi sifatida o`zimiz aybdormiz. SAVIYA mizni o`sha tipdagi asarlarni anglyadigan darajaga yetkazish uchun izlanishga majburmiz . Shunday ekan, dastlabki mutolaada retsepiyentni qaysidir xususiyatlari bilan qiynagan asar vaqt o`tib o`quvchining tafakkur doirasi va hayotiy tajribalari ortishi bilan qayta o`qish jarayonida kitobxon uchun yangi ma`no qirralini namoyish etishi ma`lum. Ammo hozir badiiy asar va kitobxon munosabati haqida emas, meni kuchli hayajonga solgan “Oydin tunlar” romani haqida yozish istagidaman.

“Oydin tunlar” romani ijodkor asarlari orasida o`ziga xos musiqiy hazin ohangi, epik asarda lirika nafasini keltiruvchi asar deyish mumkin. Avvalo asarning janr sifatidagi belgilovchi xususiyatlari e`tiborimizni tortdi. Bu ijod namunasi rus adabiyotining o`zida ham ba`zan sentimental roman bazan povest deya belgilab kelinadi. Shu sababdan o`zbek tilidagi tarjimalarda ham gohida qissa goh roman deya qorishiq holda nomlangan. Shuningdek, turk tilidagi tarjimasida ham roman nomi bilan yuritilgan. Bizningcha, asarning roman sifatida talqin qilinishiga dalillar yetarli emas. Fikrimizni izohlashga o`tamiz:

- 1) asar markazida qahramon taqdiri bilan bog`liq hodisalar turibdi, ayni jihat qissa janrining janr sifatida belgilovchi xususiyatlaridan biri bo`lib, romanga xos keng qamrov, olam va jamiyat haqidagi ijodkor tendensiyasi ko`zga tashlanmaydi;
- 2) asar mavzusi va mazmun komponentlari roman sifatida talqin etilishiga muvofiq shakllantirilmagan;
- 3) yana bir jihat asar xajmi bilan bog`liq. Hajm e`tibori bilan asar janrni belgilash nazariy asosda o`zini oqlamaydi, ammo shuni ham e`tiborda tutish kerakki, roman keng qamrovda jamiyatning joriy holatini aks ettirar ekan, shunga muvofiq tarzda voqealar va obrazlar hajmi ham keng bo`ladi va tabiiyki qisqa sahifalar mazkur muammolarni tadqiq qilish uchun kamlik qiladi.

Yuqorida keltirganimizdek asar ba`zi o`rinlarda sentimental roman deya yuritiladi. Qissa qahramoni taqdiriga sentimental yondashuv bor. Ammo bu sentimentalizmning oqim sifatidagi asosiy xususiyati ya`ni “ olamni idrok qilishda aqlga emas, hislarga tayanilishi” bilan bog`liq. Jamiyatdan jabr ko`rgan, o`quvchida achinish hissini uyg`otishi kerak bo`lgan qahramon emas u. Uning tabiatida achinarli qahramon sifatida emas, mavjud turmush tarziga ko`nikkan inson sifatida yashash ko`nikmasi bor. Shu bilan birgalikda janr xususiyatlariga xos talqindagi turli fikrlar ham bunga sabab bo`lishi mumkin. Masalan, Dostoyevskiy asarni hajman shishirishdan ko`ra qisqa hajmda ifodalashni afzal bilgan deb o`ylashga asoslar topiladi. Birinchidan, asardagi ifodalangan bir necha kechadan qahramonning ayni vaqtga qadar kechirgan hayoti ham ko`zga tashlanishini nazardan qochirmaslik kerak. Kirish qismida so`z borgan shahar hayoti, yolg`izlikda kun kechirayotgan qahramon va madaniy turmush qiyofasini shakllantirib olgan jamiyat. Asar qahramoni ma`lum ma`noda Dostoyevskiyning o`zi degan qarashlar ham bor (qarang).<sup>1</sup> To`pdan ajralgan yakka shaxs va qaynoq hayot jarayonidagi (davrga xos turmush sharoiti, aristokratlarning yil davomida xuzurli hayot kechirib yoz oylarida ommaviy ravishda salqinlash uchun qishloqlarga yo`l olishi ) zidlanish. Shaharda ilm olish bilan shug`ullanayotgan faqir talabayu, nafaqadagi qariyalargina qolgan . Turli hayotiy qatlamdagi kishilarning umumlashtirilgan qiyofasini ko`ramiz. Ismi yozilmagan qahramon va uning salomlashib turadigan nafaqadagi zobit do`sti. Darvoqe, qahramonga ism qo`yilmagani haqida: adabiyotshunos M.Norqulova ayni asarni sentimental ruhdagi asar ekanini e`tirof etarkan, bunday asar qahramoniga nom qo`yilmasligi ham ma`lum manoda ushbu turdagi ijodiy oqimga xos xususiyat ekaninin ta`kidlaydi.<sup>2</sup>

Qissa voqealari qahramon va unga yondosh Nastenka hayoti bilan bog`liq . Voqealar izchilligida Nastenka obrazi orqali balog`at yoshidagi qizlarning umimiy

<sup>1</sup> Wikipediya. Ziyo. uz

<sup>2</sup> Norqulova M. “Oydin tunlar” va “Sunbulaning ilk shanbasi” da sentimental qahramon olami. O`zbekiston til va madaniyat.2022 Vol.(1.3)160-b.

qiyofasi, muhabbat borasidagi qarashlari, sarkash, o`zgarib turuvchi tuyg`ulari ifoda topgan. Ayrim vaqtlarda insonlar o`zlarini qoniqtirmayotgan hayotidan qutilish maqsadida turli insonlar va yangi sarguzashtlardan umidvor bo`lishadi. Ayniqsa yosh va nozikqalb qizlar ertaklardagi kabi dovyurak shahzoda yovuz jodugarni mahv etishi va uning changalidan qizni qutqarib baxtli hayot singari olib ketishini hayol qiladi. Nastenka ijarachi timsolida shunday kishini ko`radi. Uning oshiqligi Tatyanning sevgisi kabi yetuk ishq emas, ruhiy-psixologik tahlil vositasida uning nafaqat qizlar tabiatidagi balki umumiy insoniyatga xos ishqning turli qiyofalaridan biri ekanini ko`ramiz.

Mazkur asarning tili va uslubi, shuningdek uning turli tillardagi tarjimalari haqida ham tadqiqotlar olib borish mumkin. Yoki biografik tahlil metodiga asoslangan holda asarning yozilish tarixi tadqiq etilsa ham adabiyotshunoslik sohasi uchun ahamiyatli ilmiy ish bo`lardir. Biz bu maqolada asarning janri va badiiy xususiyatlari haqida biroz fikr yuritmoqchi bo`ldik. Yuqoridagilarga xulosa o`laroq, men ushbu asarni barcha davrlar uchun o`z ahamiyatini yo`qotmagan lirik qissa deb atagan bo`lardim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T. "Navoiy universiteti". 2018
2. F. Dostoyevskiy. "Oydin tunlar". anorbooks. 2020.
3. "Beyaz geceler". Varlik
4. ziyonet, wikipediya, xurshid davron kutubxonasi.